

**TABIY FANLAR FAKULTETIDA KIMYO VA INGLIZ TILI
INTEGRATIV DARSINING METODIK TAHLILI**

Madaliev Oybek

“Kompyuterlashgan loyihalash tizimlari” fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tursunboeva M.A**

“O’zbek tili va tillarni o’rgatish” kafedrasи o’qituvchisi

Тел: 99 653-55-74 e-mail:mukhlisaturunboeva.19.12@gmail.com

Farg’ona politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola tabiy fanlar fakultetida kimyo fani darsini ingliz tilida integrativ yondashuv asosida o’tilishi yoritib berilgan. “Kimyo” va “ingliz tili” o’quv fanlarini fanlararo integratsiyalashuvini amalga oshirishning didaktik shartlari, shakl va usullarini ko’rib chiqilib, darslarni tashkil etish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: integrativ yondashuv, nutq faoliyati, farqlash, laboratoriya ishlari, integral tadqiqot darsi.

Аннотация: Статья посвящена переходу преподавания на английском языке предмета химии по интегративному подходу. Автором рассмотрены дидактические условия, формы и методы осуществления межпредметной интеграции учебных дисциплин «химия» и «английский язык», даны рекомендации по организации уроков.

Ключевые слова: интегративный подход, речевая деятельность, дифференциация, лабораторные занятия, интегрированный исследовательский урок.

Annotation: The article is devoted to the transition of teaching the subject of chemistry in English by an integrative approach. The author considers didactic conditions, forms and methods of implementation of interdisciplinary integration of academic disciplines "Chemistry" and "English", gives recommendations on the organization of lessons.

Key words: integrative approach, speech activity, differentiation, laboratory activities, integrated research lesson.

Oliy o’quv yurtlarida tabiy fanlar fakulteti talabalari o’z mutaxassisligini chuqur o’zlashtirish bilan bir qatorda ingliz tilini mukammal o’rganishlari asosiy talablardan biri hisoblanmoqda. Shuni inobatga oladigan bo’lsa, ingliz tilini o’rganish jarayonida bir muncha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Zero, tilning nutq faoliyati turlari bo’lmish so’zlashish, tinglab tushunish, o’qish, yozish malakalarini oshirish ko’p kuch va mehnat talab qiladi. Talabaning ingliz tilini muvafaqiyatli o’rganishi nafaqat talabaning, balki o’qituvchining o’z oldiga qo’yadigan eng oliy vazifasidir.

Ta’lim jarayoninig samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan ham uzviy bog’liq. Ushbu sohada yondashuvlarning bir qancha turi mavjud. Ular orasida integrativ yondashuv o’quvchining darsni o’zlashtirishda, duch kelinishi mumkin bo’lgan pedagogik muammolarni xal etishga ko’mak beradigan faol yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

“Integratsiya” tushunchasi XVIII asrda ingliz faylasuf olimi G.Spenser tomonidan qo’llanilgan. Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o’zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixolog olimi G.S.Kostyukning fikricha “Tabaqalanish differentsiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya – tartibga keltirish, subardinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi xosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi” [1].

Ta'limgagi fanlararo va fanga oid tushunchalar aloqadorligiga tayanib, ta'lim samaradorligiga erishish yo'llari, usul va vositalar XX asr oxiriga qadar rossiyalik olimlar N.Drujinina, T.Nazarova, I.Blinova, R.Matyushova, L.N.Baxareva tomonidan keng ko'lamma tadqiq qilindi [2].

Oliy ta'lim muassasalarining tabiiy fanlar fakultetlarida mutaxassislik fanlaridan biri hisoblangan kimyo darslari bilan xorijiy til (ingliz tili) fani mashg'ulotlarini integrativ yondashuv asosida parallel holda olib borish xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion texnologiyalari doirasida o'ziga xos namuna sifatida ko'rishi mumkin.

Ushbu turdag'i mashg'ulotni amaliy, chuqur darajadagi integratsiyalashgan tadqiqot darsi turkumiga kiritish mumkin. Integrativ yondashuvning darslarda qo'llanilishi talabalarning kasbiy kompetentsiyasini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Darsning maqsadi - mavjud bilimlarni kimyo va ingliz tiliga asoslangan sifatli bilimlarga aylantirish jarayonida faol, kognitiv, ijodiy faoliyatni tashkil etishdir. Uning rivojlantiruvchi maqsadiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunday yondashuv talabalarga hamkorlik qilish qobiliyati va unga tayyorligini rivojlantirish, ingliz tilidagi bilimlardan ilmiy-texnik atamalar, tushunchalarni tarjima qilishda foydalana olish xamda yangi axborot texnologiyalarini qo'llay olish imkoniyatini yaratadi.

Integrativ dars jarayonini metodik tahlil qiladigan bo'lsak, darsni har ikki fan o'qituvchilari olib boradilar. Namuna tariqasida quyidagi ilova havola etiladi:

Ingliz tilida beriladigan savollar	Savollarning o'zbek tilidagi tarjimalari
1. What did D. I. Mendeleev discover?	D.I.Mendeleev nimani ixtiro qilgan?
2. Is it a period or a group? Li – Be – B – C – N – O – F – Ne	Bu davriymi yoki guruhmi?
3. How many chemical elements did Mendeleev describe?	Mendeleev qancha kimyoviy elementlarni tasvirlab berdi?
4. When was the Periodic Table published?	Davriy jadval qachon nashr etilgan?
5. Do metal properties in a group increase or decrease?	Guruhlardagi metall xususiyatlari oshadimi yoki kamayadimi?

Bilamizki, kimyo fani o'z-o'zidan laboratoriya mashg'ulotlari bilan bog'liq. Shuni inobatga olgan xolda, kimyo va ingliz tili integrativ darslari nafaqat auditoriyada balki, laboratoriya xonalarida ham o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday darslar o'quv predmetlararo integratsiya bilimlarni tizimli holda o'zlashtirish yaxshiroq ekanini va predmetlararo integratsiyani tizimlashtirish vositasida ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qizi, B. D. F., & Qizi, T. M. A. (2019). Difficulties in learning English as a second/foreign language. *Достижения науки и образования*, (4 (45)), 47-48.
2. Qizi, T. M. A. (2019). Критерии выбора хорошего англо-английского словаря при изучении иностранного языка. *Достижения науки и образования*, (1 (42)), 58-60.
3. Qizi, B. D. F., & Qizi, T. M. A. (2019). Difficulties in learning English as a second/foreign language. *Достижения науки и образования*, (4 (45)), 47-48.
4. Jalilov, I. I. U. (2022). К актуальным проблемам становления педагогического мастерства преподавателя. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(9), 81-89.
5. Jalilov, I. (2019). TO THE PROBLEMS OF INNOVATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 344-347.
6. Mikheeva, A. I. (2021). PHYSICAL ACTIVITY AND ITS IMPACT ON THE PREVENTION AND TREATMENT OF CARDIOVASCULAR DISEASES. *Theoretical & Applied Science*, (5), 460-466.
7. Mikheeva, A. (2020). TEACHING SKILL OF THE TEACHER AND ITS FORMATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(8), 323-328.
8. Mikheeva, A. (2019). SPORTS LESSON-TIME REQUIREMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 287-292.